

Iqtisodiy sikllarning paydo bo'lishi va iqtisodiyotga ta'siri.

Ilmiy rahbar: k.o'q. Mamadiyorov O.

KBI 76- guruh talabasi Xolxo'jayev I.

Iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari, xoh u ishlab chiqarish bo'lsin, xoh xizmat ko'rsatish, boshqaruv va bank-moliya tizimlari bo'lsin barchasida davr o'tishi bilan iqtisodiy larzalar, ko'tarilish, tushish, yuksalish va turg'unlik kabi holatlar kuzatiladi. Ayni shu narsa, ya'ni iqtisodiy sikllarning mavjudligi iqtisodiyotni, undagi o'zgarish va tendensiyalarni muntazam kuzatib borish va nazorat ostiga olishni talab etadi. G'arb iqtisodiy nazariyotchi olimlari iqtisodiy sikllarning paydo bo'lishiga quyidagi omillarni sabab qilib ko'rsatadilar: urushlar; inqiloblar; prezidentlik saylovlari; talab hajmining yetarli emasligi; aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sib borishi; investorlardagi optimizm va pessimizm holatlari; pul taklifining o'zgarishi; texnik va texnologik yangilanish va boshqalar. Iqtisodiy sikllarning paydo bo'lishining asosiy sababi yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi, yalpi xarajatlar va umumiy ishlab chiqarish hajmlari o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjud bo'lishidadir.

Hozirgi zamon iqtisodchilari sikllarning to'rtta fazasi borligini ta'kidlashadi. Unga ko'ra iqtisodiy siklning birinchi fazasi bum (boom) fazasi deb ataladi. Bu fazada ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi juda yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi va ishlab chiqarilgan mahsulotlar to'lig'icha sotilmay qolishi, iqtisodiyotning tovarlashuvi yuz beradi va avvaliga firmalarda zahiralar to'plana boradi. Tovarlar zahirasi o'sishi esa ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi. Bu II fazaning boshlanishini ifodalaydi. II faza pasayish deb nomlanib, bu fazada sotilmay qolgan tovarlar hisobiga ishlab chiqarish hajmlari qisqarib, ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritayotgan ishchi xodimlarning ishdan bo'shashiga olib keladi. Bu esa iqtisodiyot uchun yana bir muammo ishsizlikni keltirib chiqaradi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asrning 30 yillarida ya'ni, 1929-1933 yillardagi "Buyuk depressiya" keltirib chiqargan natijalardan biri ishsizlik bo'lgan. Bu davr ichida AQSh da ishsizlik darajasi 8 barobar oshib ketib, mehnatga yaroqli aholining 25 % ini qamrab olgan.

Iqtisodiy siklning III eng asosiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan fazasi bu - inqiroz yoki stagnatsiya fazasidir. Stagnatsiya fazasi mahsulot ishlab chiqarishning keskin tushishi iqtisodiyotda iqtisodiy faollikka nisbatan rag'batning yo'qolishi, yuqori darajadagi ishsizlik bilan xarakterlanadi. Iqtisodiy siklning yakunlovchi bosqichi jonlanish va yuksalish bosqichidir. Bu bosqichda iqtisodiy subyektlarning nisbatan faollashuvi kuzatiladi, yangi ish o'rinlari yaratilishi barobarida ishsizlar soni qisqarib, bozorlardagi narx-navo o'z iziga tusha boshlaydi.

Umuman iqtisodiyotni muntazam monitoringini yuritishdan ko'zlangan asosiy maqsad iqtisodiy larzalar kelib chiqishi sabablarini aniqlash va ularning salbiy oqibatlari ta'sirini nisbatan qisqartirish hisoblanadi. Iqtisodiy larzalar keltirishi mumkin bo'lgan zararlar hajmini to'laroq tasavvur qilish uchun 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirlarini keltiramiz. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida 2008—2009-yillarda AQSH, Kanada, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Ukraina va boshqa qator mamlakatlarda ko'plab kompaniyalar, korxona va firmalar bankrot bo'ldi. 2008-yil natijalariga ko'ra, AQSH YaIM hajmi 3,8% ga tushib ketdi, ishsizlar soni esa 2,2 mln. kishidan oshib ketdi. Yaponiyada esa YaIM hajmi 3,1% ga pasaydi, ishsizlik darajasi esa 4,4% ga yetgan. Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlarda sanoat ishlab chiqarishi 12% ga tushib ketgan. Bunday inqiroz mamlakatimizga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Biroq keyingi yillarda mamlakatimizning makroiqtisodiy ko'rsatkichi ancha o'sib bormoqda. 2012-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni: yalpi ichki mahsulot 66044,5 mlrd so'm, ya'ni 108,2 foizni; sanoat mahsuloti 36683,9 mlrd so'm, ya'ni 107,2 foizni; chakana tovar aylanmasi 26127,9 mlrd so'mni, ya'ni 112,6 foizni; asosiy kapitalga investitsiyalar 15301,5 mlrd so'mni, ya'ni 109,8 foizni tashkil etdi. 2013-yil yanvar-mart oylarida esa yalpi ichki mahsulot 21169,8 mlrd so'mni ya'ni 107,5 foizni; sanoat mahsuloti 12989,0 mlrd so'm, ya'ni 106,0 foizni; chakana tovar aylanmasi 9064,3 mlrd so'm, ya'ni 113,1 foizni; asosiy kapitalga investitsiyalar 4598,6 mlrd so'm, ya'ni 107,2 foizni tashkil qildi¹. Bunday iqtisodiy o'sish yiliga bir xil tempda bormaydi. Ma'lum muddatda pasayishni ham kuzatishimiz

¹ O'zbekiston Davlat Statistika qo'mitasi

mumkin. Iqtisodiy sikllarning yuzaga kelishi va ta'sirini kamaytirish maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- Tijorat banklarining kredit portfelini optimal diversifikatsiyalash;
- Inqirozlar vaqtida aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida xodimlar ish o'rinlarining sug'urtasini tashkil etish;
- Tijorat banklarining kapitallashuviga erishish va ular ustidan markaziy bankning doimiy nazoratiga erishish;

So'nggi moliyaviy inqiroz xalqaro savdo, bank-moliya va boshqaruv tizimlarida mavjud kamchiliklarni ochib tashladi va iqtisodiy nazariyotchilar oldiga iqtisodiy sikllarni chuqurroq o'rganish va oldindan bashoratlash kabi vazifalarni qo'ydi.